




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2021- yilning yanvar-may oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 4 402,8 mlrd. soʼmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2020 - yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,725 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oʼsishining asosiy omili elektr, gaz, bugʼ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 10,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 6,6 % ga, oʼsishning kuzatilishi boʼlsa, togʼ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 30,9 % ga, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishda – 9,1 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʼrsatkichdir.*



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,016 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 214,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,725 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 43,7 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 25,8 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,7 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 43,7 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 25,8 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,7%.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-may oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 146,8 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,335%) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 110,5 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,924 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 63,6 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 36,1 % tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-may	2020 - yil yanvar-may	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	71,9	138,2	-66,3
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	47,6	59,6	-12,0
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	22 799,0	22 150,0	649,0
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	5 016,0	2 770,0	2246,0
Aroq – ming litr:	33,2	177,1	-143,9
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	4,8	7,4	-2,6
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	240,0	300,0	-60,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	37 173,0	39 538,5	-2365,5
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	10 871,1	5 523,0	5348,1
Xo‘jalik sovuni – tonna:	1 829,4	2 088,0	-258,6
Paxta tolasi – tonna:	32 475,0	29 574,3	2900,7
Paxta chigit – tonna:	61 947,6	50 311,2	11636,4

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-may	2020 - yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	12 297,0	11 344,0	953,0

Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:


10 629,0

9 901,0

728,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 36,8 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi 11,9 ming Gkal. ga, aroq 92,8 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 2,6 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 2 729,1 tonnaga, tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar 1 066,0 ming kv.m.ga kamaygan.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-may oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-may oylarida bu ko‘rsatkich 4,3 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 45,4 % dan 45,2 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 % dan 0,03 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 42,7 % dan 46,2 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,4 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar-may oylarida 0,8 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori

texnologiyali tarmoqda 1 988,6 mlrd. soʻmlik (1 690,8 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 188,7 mlrd. soʻmlik (244,9 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 2 035,9 mlrd. soʻmlik (1 591,1 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari


Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-may mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	4402,8	106,6
Urganch shahri	761,2	111,1
Xiva shahri	51,6	98,2
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	166,6	105,5
Gurlan tumani	215,5	115,0
Qoʻshkoʻpir tumani	169,7	162,4
Urganch tumani	259,1	113,0
Hazorasp tumani	146,3	108,8
Tuproqqaʼa tumani*	1989,5	105,3
Xonqa tumani	215,4	104,6
Xiva tumani	73,5	76,4
Shovot tumani	235,2	105,6
Yangiariq tumani	84,6	56,8
Yangibozor tumani	34,6	105,3

Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Tuproqqaʼa tumani, Urganch shahri, Bogʻot, Gurlan, Qoʻshkoʻpir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-mayga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 162,4 %, Gurlan tumanida 115,0 %, Urganch tumanida 113,0 %, Urganch shahri 111,1 %, Hazorasp tumanida 108,8 %, Shovot tumanida 105,6 %, Bog'ot tumanida 105,5 %, Yangibozor tumanida 105,3 %, Tuproqqa'l'a tumanida 105,3 %, Xonqa tumanida 104,6 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2020 - YIL YANVAR-MAY OYLARIGA NISBATAN, % DA**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,2 %), Urganch shahri (17,3 %), Urganch (5,9 %), Shovot (5,3 %), Gurlan (4,9 %), Xonqa (4,9 %), Qo'shko'pir (3,8 %), hamda Bog'ot (3,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (1,7 %), Xiva shahri (1,2 %) va Yangibozor tumaniga (0,8 %) to'g'ri kelmoqda.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish (mlrd. so'm)**
Iqtisodiy faoliyat turlari:
**2021 - yil
yanvar-may**
**2020 - yil
yanvar-may**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi**

4402,8
3722,7

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlash**

0,7
0,9

ulardan:

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa
faoliyat

0,7
0,9

Ishlab chiqaradigan sanoat

4214,6
3527,8

undan:

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

641,8
545,4

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab
chiqarish

137,9
97,0

To'qimachilik mahsulotlari ishlab
chiqarish

1136,9
831,3

Kiyim ishlab chiqarish

22,9
16,1

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab
chiqarish

2,6
2,5

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va
to'qish uchun materillallari, ishlab
chiqarish

11,6
11,9

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab
chiqarish

31,4
25,9

Yozilgan materiallarni nashr qilish va
aks ettirish

0,5
0,6


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-may	2020 - yil yanvar-may
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	8,1	19,6
Asosiy farmasevtika	1,3	0,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	25,5	41,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	92,0	101,7
Metallurgiya sanoati	10,1	25,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	54,0	68,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,06	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	8,6	10,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	47,7	8,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1924,3	1652,6
Mebel ishlab chiqarish	11,0	11,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	39,2	49,0
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	6,8	8,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	146,8	165,5
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	40,7	28,5




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 2 634,8 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar - may



2020 - yil yanvar - may



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 669,3 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 3,6 mlrd. so'mni va 1 961,9 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- may oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 116,8 %, 45,7 % va 101,9 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 59,8 % ni (2020 - yil yanvar- may oylarida 67,3 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 156,6 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 1 560,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 244,8 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati
(2021 – yilning yanvar-may oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2634,8	100,0	105,1
Urganch shahri	403,7	15,3	133,0
Xiva shahri	43,7	1,7	113,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	74,6	2,8	114,9
Gurlan tumani	52,7	2,0	93,4
Qo‘shko‘pir tumani	33,6	1,3	93,5
Urganch tumani	90,7	3,4	96,0
Hazorasp tumani	32,8	1,2	92,5
Tuproqqa'l'a tumani	1609,6	61,1	100,7
Xonqa tumani	144,6	5,5	109,0
Xiva tumani	30,5	1,2	92,1
Shovot tumani	50,2	1,9	98,9
Yangiariq tumani	32,4	1,2	114,4
Yangibozor tumani	35,7	1,4	105,1

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib – 61,1 % ni, Urganch shahrida 15,3 % ni, Xonqa tumanida 5,5 % ni, Urganch tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (133,0 %), Bog'ot tumanida (114,9 %), Yangiariq tumanida (114,4 %), Xiva shahrida (113,0 %) va Xonqa tumanida (109,0 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021 - yilning yanvar-may oylarida)

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	669,3	100,0	116,8
Urganch shahri	264,6	39,5	142,9
Xiva shahri	15,0	2,2	97,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	53,4	8,0	114,9
Gurlan tumani	42,2	6,3	102,6
Qo'shko'pir tumani	18,7	2,8	108,7
Urganch tumani	59,1	8,8	93,7
Hazorasp tumani	19,1	2,8	108,5
Tuproqqa'l'a tumani	8,6	1,3	101,1
Xonqa tumani	94,8	14,2	108,7
Xiva tumani	18,6	2,8	87,8
Shovot tumani	34,5	5,2	106,4
Yangiariq tumani	16,7	2,5	105,8
Yangibozor tumani	24,0	3,6	109,3

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 39,5 % , shuningdek, Xonqa tumanida 14,2 % , Urganch tumanida 8,8 % , Gurlan tumanida 6,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (142,9 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2021 - yilning yanvar-may oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-may nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1961,9	100,0	101,9
Urganch shahri	135,4	6,9	122,7
Xiva shahri	28,8	1,5	123,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	21,2	1,1	114,9
Gurlan tumani	10,4	0,5	68,7
Qo‘shko‘pir tumani	14,8	0,8	79,5
Urganch tumani	31,6	1,6	100,5
Hazorasp tumani	13,8	0,7	76,9
Tuproqqa'l'a tumani	1600,9	81,6	100,7
Xonqa tumani	49,8	2,5	109,4
Xiva tumani	12,0	0,6	99,8
Shovot tumani	15,8	0,8	85,6
Yangiariq tumani	15,7	0,8	125,1
Yangibozor tumani	11,7	0,6	97,3

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri keldi

(81,6 %), shuningdek, Urganch shahrida 6,9 % ni, Xonqa tumanida 2,5 % ni va Urganch tumanida 1,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Xonqa tumani (109,4 %), Bog'ot tumani (114,9 %), Urganch shahri (122,7 %), Xiva shahri (123,6 %), Yangiariq tumani (125,1 %) tashkil qildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- may oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- may oylariga nisbatan Urganch shahrida (133,0 %), Bog'ot tumanida (114,9 %), Yangiariq tumanida (114,4 %), Xiva shahrida (113,0 %), Xonqa tumanida (109,0 %), Yangibozor tumanida (105,1 %), Tuproqqa'l'a tumanida (100,7 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Shovot tumanida (98,9 %), Urganch tumanida (96,0 %), Qo'shko'pir tumanida (93,5 %), Gurlan tumanida (93,4 %), Hazorasp tumanida (92,5 %), Xiva tumanida (92,1 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021 - yil yanvar- may oylarida, ming so‘m)**

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2322,0	105,1	1389,6	103,6
Urganch sh.	5246,2	110,3	2782,0	132,0
Xiva sh.	551,0	96,7	467,0	111,3
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	998,7	103,7	447,3	113,0
Gurlan	1439,5	113,6	351,9	92,3
Qo‘siko‘pir	975,9	160,4	193,0	92,4
Urganch	1284,5	110,9	449,6	94,1
Hazorasp	746,4	107,2	167,4	91,2
Tuproqqal'a	35717,4	104,2	28897,0	99,6
Xonqa	1142,3	103,0	766,6	107,3
Xiva	498,2	75,2	207,1	90,6
Shovot	1368,2	104,1	292,3	97,5
Yangiariq	721,4	56,0	275,9	112,8
Yangibozor	392,7	104,0	405,0	103,8


Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 2 322,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,1 % ga darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yil yanvar-may oylarida Urganch shahrida 4 186,0 ming so‘mdan 5 246,2 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 819,5 ming so‘mdan 998,7 ming so‘mga, Gurlan

tumanida 1 131,9 ming so‘mdan 1 439,5 ming so‘mga, Qo‘siko‘pir tumanida 572,5 ming so‘mdan 975,9 ming so‘mga, Urganch tumanida 804,7 ming so‘mdan 1 284,5 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 595,4 ming so‘mdan 746,4 ming so‘mga, Tuproqqal‘a tumanida 31 508,0 ming so‘mdan 35 717,4 ming so‘mga, Xonqa tumanida 997,8 ming so‘mdan 1 142,3 ming so‘mga, Shovot tumanida 1 181,8 ming so‘mdan 1 368,2 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 326,3 ming so‘mdan 392,7 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal‘a tumanida (35 717,4 ming so‘m), Urganch shahrida (5 246,2 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 322,0 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 1 389,6 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,6 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-may oylarida Urganch shahrida 2 106,9 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-may oylarida 2 782,0 ming so‘mga, Xiva shahrida 419,5 ming so‘mdan 467,0 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 396,0 ming so‘mdan 447,3 ming so‘mga, Xonqa tumanida 714,1 ming so‘mdan 766,6 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 244,5 ming so‘mdan 275,9 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 390,4 ming so‘mdan 405,0 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal‘a tumanida (28 897,0 ming so‘m), Urganch shahrida (2 782,0 ming so‘m) aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 389,6 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- may oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 893,8 mld. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,3 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqal‘a tumani (3,5 %), Shovot tumani (17,7 %), Urganch shahri (18,0 %) va Qo‘siko‘pir tumanida (22,2 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Bog'ot tumani (45,3 %), Urganch tumani (39,4 %), Xonqa tumani (39,2 %), Gurlan tumani (28,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 580,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 13,2 % ni tashkil etdi.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Viloyatda 2021- yilning 1- iyun holatiga, 3 958 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 820 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,7 %) Urganch shahriga, 466 tasi (11,8 %) Urganch tumaniga, 360 tasi (9,1 %) Xiva shahriga, 343 tasi (8,7 %) Xonqa tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021 - yil yanvar - may oylarida viloyatda 488 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan 97 tasi Urganch shahrida, 52 tasi Xonqa tumanida, 52 tasi Urganch tumanida, 49 tasi Hazorasp tumanida, 39 tasi Xiva tumanida, 38 tasi Xiva shahrida tashkil etilgan.

